



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2026 yil “16”mart

02-28/6801-son

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
sog‘liqni saqlash vazirligi,
Toshkent shahar va viloyatlar
sog‘liqni saqlash boshqarmalari,
Vazirlik tasarrufidagi tibbiyot
Oliy ta‘lim muassasalari va
ilmiy tashkilotlarga**

**Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot
markazi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Toshkent davlat tibbiyot
universiteti hamda O‘zbekiston psixiatrlar assotsiatsiyasi tomonidan
rejalashtirilgan «III Yosh psixiatr va narkologlarning bahorgi Samarqand
maktabi» nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida**

KO‘RSATMA

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy tashkiliy tadbirlar rejasi ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. **2026 yilning 8-12-aprel** kunlari Samarqand davlat tibbiyot universitetida Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan Butunjahon psixiatrlar assotsiatsiyasi hamkorligida Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Toshkent davlat tibbiyot universiteti hamda O‘zbekiston psixiatrlar assotsiatsiyasi bilan birgalikda rejalashtirilgan **«III Yosh psixiatr va narkologlarning bahorgi Samarqand ilmiy maktabi» (keyingi o‘rinlarda - ilmiy Maktab)** nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazilsin.

2. **Ilmiy Maktab** dasturi *1-ilovaga* muvofiq, anjumanga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi *2-ilovaga* muvofiq, ishchi qo‘mita tarkibi *3-ilovaga* muvofiq, anjuman ishtirokchilari ro‘yxati *4-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

3. Fan-ta‘lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (O‘.S.Ismailov), Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori (Z.Sh.Ashurov), Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori (J.Rizayev) va Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori (Sh.Baymurodov): anjumanga puxta tayyorgarlik asosida, belgilangan muddatda yuqori ilmiy va tashkiliy saviyada o‘tkazilishi ta‘minlansin.

Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot
markazi

4. Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori Z.Ashurovga:

- sertifikatlarni tayyorlash va Ilmiy Maktab qatnashchilarini o'rnatilgan tartibda sertifikatlar bilan taminlash amalga oshirilsin;

- Ilmiy Maktab o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-xarajatlar homiylar va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qoplanishi nazarda tutilsin;

- Ilmiy Maktab o'tkazganligi to'g'risidagi hisobotni 3 kun muddat ichida Fan ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etilishi ta'minlansin;

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar Sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari, tibbiyot oliy o'quv yurtlari rektorlari, ilmiy-tekshirish institutlari, ilmiy va ixtisoslashtirilgan markazlar direktorlariga:

- 4-ilovaga muvofiq o'z mutaxassislarini Ilmiy Maktab ishida qatnashishi ta'minlansin.

- 2026 yilning 8-12-aprel kunlari Samarqand davlat tibbiyot universitetida tashkil etiladigan **Ilmiy Maktab** ishida qatnashuvchi tashkilotchilar hamda unda ishtirok etuvchilarning hizmat safari bilan bog'liq barcha xarajatlar asosiy ish joyidan qoplanishi ta'minlansin.

6. Axborot xizmati boshlig'i (F.Ch.Sanaev) ilmiy-amaliy anjuman ishini ommaviy axborot vositalari orqali yoritishni tashkillashtirsin.

7. Ushbu ko'rsatma xat ijrosining nazoratini Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i O'. Ismailov zimmasiga yuklansin.

Vazirning birinchi
o'rinbosari



A. Boboyev